

Картография-геодезия давлат кадастри

**Давлат геодезия назорати инспекцияси-
Картография-геодезия давлат кадастрини
юритиш ишларининг ижрочиси
хисобланади.**

- ✘ O'zbekiston Respublikasi hududida Davlat geodeziya nazorati 1993 yil 3 iyuldan amalga oshirilmoqda.
- ✘ Mustaqillikka erishilgandan keyin, Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 24 martadagi № 139 qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasi (O'zRDGNI) tashkil qilindi.
- ✘ 2004 yil 19 oktyabrda Geodeziya nazorati davlat inspeksiyasi, Davlat geodeziya nazorati inspeksiyasiga aylantirildi («Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi huzuridagi DGNI).

- ✘ DGNI geodeziya va kartografiya faoliyati sub'yektlari tomonidan geodeziya va kartografiya faoliyatini amalga oshirish bo'yicha normativ-texnik hujjatlar talablariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.
- ✘ DGNI ning muhim vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasining o'zgartirishlar kiritib boriladigan ma'lumotnoma tariqasidagi xaritasini yuritish hisoblanadi.

-
- ✘ Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 15 noyabrdagi №250-sonli Qaroriga binoan DGNI Geodeziya va kartografiya davlat kadastrini ishlarni ijrochisi hisoblanadi. 2005-2012 yillarda Geodeziya va kartografiya davlat kadastrini ob'yektlari avtomatlashtirilgan hisobini yuritish uchun dasturlar («TopGeodKad», «CKGF» va «GKDK») yaratildi.

Давлат геодезия назорати инспекцияси:

- ✘ геодезия, топография ва картография ишлари материалларининг Давлат геодезия назорати инспекциясига ўз вақтида тақдим этилишини назорат қилади;
- ✘ кадастр ахборотларини шакллантириш ва тақдим этиш форматларини ишлаб чиқади, уларнинг сифатини назорат қилади;
- ✘ Картография-геодезия давлат кадастрининг автоматлаштирилган ахборот тизимини шакллантиришни ва унинг фаолиятини таъминлайди;

✘ Картография-геодезия давлат кадастрининг автоматлаштирилган ахборот тизими маълумотлар базаси тузилмасини ишлаб чиқади, маълумотлар базасининг тўғри тўлдирилишини назорат қилади;

✘ ҳисобга олиш ва баҳолаш кадастр ахборотларини тизимлаштиради, шакллантиради ва уларни Картография-геодезия давлат кадастрининг автоматлаштирилган ахборот тизимига киритади;

- ✘ Hozirgi vaqtda GKDK electron bazasida 17099 topografik xaritalarning noshirlik originallari, 13002 topografik xaritalar, 13000 dan ortiq geodezik punktlar, 1886 texnik hisobotlar, 1148 texnik loyiha (dasturlar) bo'yicha to'liq ma'lumotlar mavjud.
- ✘ GKDK ob'yektlari to'g'risida ma'lumotlar «ArcGIS» dasturi formatida DKYAT (GKMM)ga doimiy ravishda taqdim etilmoqda.